

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

manbalar asosidagi tahlili.....	347
G.Sh.Shaydullayeva	
Turon sivilizatsiyasi aholisining ijtimoiy holatiga madaniy aloqalarning ta'siri.....	353
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1960–1980-yillarda qishloq xo'jaligi boshqaruvida byurokratik muammolar va davlat mulkini talon-taroj qilish holatlari.....	358
X.Burxanov	
Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari	362
N.R.G'ulomova	
Ziyorat turizmi: uning tarixiy-tadrijiy rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	367
Sh.F.Allanazarov	
Komil Xorazmiy asarlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayot tahlili.....	380
A.T.Toshmamatov	
O'zbek va ukrain xalqlari madaniy uyg'unligining tarixiy namoyasi: Xasanovlar oilasi misolida	380
Sh.A.Mirzamidinova	
Ashurali Zohiriyning shaxsiyati, faoliyati va merosi.....	384
O.B.Abdunosirova	
Amir Temur va Temuriylar davrida pul munosabatlari	390
M.X.Muzaffarov	
Vengriya va Turkiy dunyo: tarixiy bog'lanish va aloqalari.....	393
S.F.Norbekov	
Sharqiy Slavyan diasporasining Turkistondagi madaniy va ma'rifiy hayoti (1918–1924 yy.).....	398

ILMIY AXBOROT

I.T.Boltaboev	
Ijtimoiy adolat konsepsiyasining zamonaviy falsafiy talqinlari.....	409
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1945–1980 yillarda sug'orish va melioratsiya tizimining rivojlanishi	413
N.M.Axmadiyev	
Yangi O'zbekistonda kelesajak avlod tarbiyasiga gerontologik mexanizmini yanada rivojlantirish.....	417
B.X.Karimov	
Ongni boshqarish falsafasi hamda globallashtirish sharoitida inson tafakkuri barqarorligini ta'minlashning zamonaviy konsepsiyasi	420
E.X.Zoyirov	
Ya'qub Charxiy ta'limotida borliq nazariyasi.	425
Sh.T.Abbosova	
Buyuk ipak yo'lida ilm-fan va madaniy muloqot rivoji.....	431
Sh.N.Niyozova	
Vatanparvarlikning ma'naviy-falsafiy mohiyati va shaxsning ijtimoiy-axloqiy yetukligi.....	434
Sh.X.Matyozubova	
Xorazm vohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va ularning Yangi O'zbekistonga ta'siri.....	438
R.D.Dehqonov	
Teatr san'atining yoshlar ruhiy-axloqiy rivojlanishiga ta'siri	442
Z.T.Tursunboyev	
O'zbekistonda oilaviy zo'ravonlikning oldini olishda konformizm omilining ahamiyati	446
R.D.Dehqonov	
Yangi O'zbekistonda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda teatr san'atining o'rni.....	451
Z.T.Tursunboyev	
“Tazyiq va zo'ravonlik” tushunchalari: turlari va oilada oldini olish mexanizmlari	455
N.T.Xolikov	
Globalashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	459
Sh.A.Rasulova	
Harakatlar strategiyasidan Yangi O'zbekistongacha: xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy mavqeiini mustahkamlanishi	462
A.A.Aloxunov	



UO'K: 94(575.1+477):39

O'ZBEK VA UKRAIN XALQLARI MADANIY UYG'UNLIGINING TARIXIY NAMOYASI: XASANOVLAR OILASI MISOLIDA

ИСТОРИЧЕСКОЕ ПРОЯВЛЕНИЕ КУЛЬТУРНОЙ ГАРМОНИИ УЗБЕКСКОГО И УКРАИНСКОГО НАРОДОВ: НА ПРИМЕРЕ СЕМЬИ ХАСАНОВЫХ

HISTORICAL MANIFESTATION OF CULTURAL HARMONY BETWEEN UZBEK AND UKRAINIAN PEOPLES: THE CASE OF THE XASANOV FAMILY"

Toshmamatov Azizbek Tohir o'g'li 

Termiz davlat universiteti magistratura bo'limi, Etnografiya, etnologiya va antropologiya yo'nalishi, magistranti; Termiz arxeologiya muzeyi ilmiy xodimi.

Annotatsiya

Ushbu maqola Surxondaryo viloyati, xususan Sherobod tumanidagi Xasanovlar oilasi hayoti va ularning madaniy, ijtimoiy hamda tarixiy ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot Xolmurod Xolmurodovich va Yekaterina Gavrelyevnaning turmush tarixi, ularning oilaviy qadriyatlari, farzandlari hayot yo'li hamda Sherobodagi mehnat faoliyati orqali Surxondaryo va Ukraina xalqlari o'rtasidagi madaniy va etnik uyg'unlikni tahlil qiladi.

Аннотация

Данная статья посвящена изучению жизни семьи Хасанов в Сурхандарьинской области, в частности в Шерободском районе, а также их культурного, социального и исторического значения. Исследование анализирует семейную историю Холмурода Холмуродовича и Екатерины Гаврельевны, их семейные ценности, жизненный путь детей и трудовую деятельность в Шеробод, а также культурную и этническую гармонию между народами Сурхандарьи и Украины.

Abstract

This article is dedicated to studying the life of the Khasanov family in Surkhandarya region, particularly in Sherobod district, as well as their cultural, social, and historical significance. The study analyzes the family history of Kholmurod Kholmurodovich and Yekaterina Gavrelyevna, their family values, the life paths of their children, and their labor activities in Sherobod, highlighting the cultural and ethnic harmony between the peoples of Surkhandarya and Ukraine.

Kalit so'zlar :Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani, Xolmurod bobo, Gulnora Xolmurodovna, PEMKA, 14-avtobaza, migratsiya, etnik uyg'unlik, oila tarixi, madaniy integratsiya, demografik o'zgarish

Ключевые слова: Сурхандарьинская область, Шерободский район, Холмурод бабо, Гульнора Холмуродовна, PEMKA, 14-автобазы, миграция, этническая гармония, семейная история, культурная интеграция, демографические изменения

Key words: Surkhandarya region, Sherobod district, Kholmurod Bobo, Gulnora Kholmurodovna, PEMKA, 14th motor depot, migration, ethnic harmony, family history, cultural integration, demographic changes.

KIRISH

Surxondaryo viloyati tarixiy, madaniy va demografik jihatdan boy hududlardan biri bo'lib, u O'zbekiston janubida strategik ahamiyatga ega. Shu hududdagi oilalar, jumladan Xasanovlar oilasi, vohaning madaniy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o'rin tutgan. Ushbu maqola Xolmurod Xolmurodovich va Yekaterina Gavrelyevna oilasi hayotini markazga olib, ularning mehnat faoliyati, oila tarixi, farzandlari voyaga etishi va ikki xalq — o'zbek va ukrain madaniyatlari o'rtasidagi uyg'unlikni tahlil qiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — Surxondaryodagi hududiy migratsiya jarayonlari, transport va ishlab chiqarish tizimlarining oilaviy hayotga ta'siri hamda etnik barqarorlikni o'rganishdir[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

Maqola tarixiy manbalar, biografik ma'lumotlar va shaxsiy xotiralar orqali oila tarixi bilan hududiy va demografik tahlilni uyg'unlashtiradi. Shu bilan birga, **PEMKA korxonasi** va **14-avtobaza** faoliyati oilaning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishidagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatadi. Ushbu tadqiqot Surxondaryo viloyatidagi oilaviy tarix, migratsiya, madaniy uyg'unlik va demografik o'zgarishlar bo'yicha ilmiy manba sifatida foydalanishga mo'ljallangan.

TARIX

Xasanov Xolmurod Xolmurodovich 1935-yil 8-mayda Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida tavallud topgan. U o'zining hayotini ilm-fan, mehnat va oilaviy qadriyatlar bilan bog'lagan, hurmatga sazovor inson sifatida tanilgan. Yoshligidan tirishqoq, intiluvchan va mas'uliyatli bo'lgan Xolmurod bobo, 1959–1960-yillarda Sovet armiyasi tarkibida Ukraina hududida harbiy xizmatni o'tagan. Shu yillarda uning hayotida muhim voqea yuz berdi — u ukrain millatiga mansub Yefimenka Yekaterina Gavrelyevna bilan uchrashdi. Ushbu uchrashuv nafaqat shaxsiy taqdirini, balki ikki millat — o'zbek va ukrain xalqlarining oilaviy va madaniy uyg'unligini belgiladi[2].

Yekaterina Gavrelyevna 1939-yil 8-dekabrda Ukraina Respublikasining Nikolayev viloyati, Snigyrofka shahrida tavallud topgan. Uning qizlik familiyasi Yefimenka, ukrain xalqi orasida keng tarqalgan va odatda “-ko” qo'shimchasi bilan tugagan familiyalardan biri hisoblanadi. Xolmurod bobo bilan tanishgach, u qisqa vaqt ichida turmush qurishga qaror qildi va O'zbekistonga, Sherobod tumaniga ko'chib keldi. Nikohdan so'ng Buvimiz o'z familiyasini turmush o'rtog'i familiyasi bilan almashtirib, Xasanova Yekaterina Gavrelyevna sifatida yashashni boshladi. Shu tariqa, ikki millatning tarixiy va madaniy uyg'unligi oilada o'z ifodasini topdi[3].

Xolmurod bobo o'qishni davom ettirish uchun Toshkent shahridagi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutiga kiradi va u erda geografiya va rus tili yo'nalishida puxta bilim oladi. O'qishni muvaffaqiyatli tamomlagach, u Sherobod tumaniga qaytib, 6- va 24-maktablarda o'qituvchi sifatida faoliyat yuritadi. U o'zining mehnatsevarligi, ilmga bo'lgan qiziqishi va o'quvchilarga bo'lgan e'tibori bilan jamiyatda hurmatga sazovor bo'ldi. Shuningdek, Xolmurod bobo Sherobod tumanidagi PEMKA korxonasida ham faoliyat yuritgan. PEMKA o'sha davrda tumanning iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynagan yirik xo'jalik bo'lib, unda turli transport vositalari mavjud edi. Bu transport vositalari bevosita ishlab chiqarish jarayonlarini, xususan, paxtani tashish, ichki logistika va xomashyo harakatini tashkil etish kabi vazifalarni bajarishga xizmat qilgan. PEMKA nafaqat ishlab chiqarish, balki tuman aholisi uchun ish o'rinlari yaratish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Xolmurod boboning turmush o'rtog'i — Yekaterina buvimiz — Sherobod tumanidagi 14-avtobazada faoliyat yuritgan. Ushbu avtobaza tuman transport tizimining markaziy qismi bo'lib, shahar va qishloqlararo qatnovlarni tashkil etish, aholini tashish xizmatini ta'minlashda muhim rol o'ynagan. Buvimiz o'zining sadoqatli va mas'uliyatli xodim sifatida jamoadagi hurmatini qozongan. Xolmurod bobo va Yekaterina buvimizning oilasi besh farzanddan iborat:

Xasanov Bohodir Xolmurodovich — 1961-yilda tug'ilgan, 2009-yilda vafot etgan.

Xasanova Gulnora Xolmurodovna — 1963-yilda tug'ilgan, Sherobod tumanida nafaqada, Mehnat faxriysi unvoniga ega, Termiz davlat universitetida tahsil olgan. Uning uch nafar farzandi — Shuhrat, Sherzod va Shahzoda — hayotda o'z yo'lini topgan, ziyoli va ma'rifatli shaxslar sifatida voyaga etgan.

Xasanova Elmira Xolmurodovna — 1966-yilda tug'ilgan.

Xasanov Alisher Xolmurodovich — 1969-yilda tug'ilgan.

Xasanov Tohir Xolmurodovich — 1980-yil 28-oktabrda Ukraina Respublikasida tug'ilgan. Tohir aka ta'kidlashicha, oilada uch o'g'il va ikki qiz bo'lgan, uch o'g'il Ukrainada, qizlar esa Sherobod tumanida dunyoga kelganp[4].

Gulnora opaning so'zlariga ko'ra, buvimiz har yili Ukrainaga qarindoshlariga borib turgan. Bu bordi-keldi ikki xalq o'rtasidagi do'stlik, madaniy uyg'unlik va insoniy rishtalarni mustahkamlashda muhim rol o'ynagan. Ularning oilasi Surxondaryo va Ukraina tarixidagi migratsiya, madaniy integratsiya va etnik uyg'unlik jarayonlarini yaqqol namoyon qiluvchi voqea sifatida tarixda qoldi. Bugungi kunda Gulnora opa o'zining butun hayotini Sherobod tumaniga bag'ishlagan. U uzoq yillar davomida mehnat faoliyatini davom ettirib, jamoada hurmatga sazovor bo'lgan. Hozir nafaqada bo'lib, oilasi bilan birga yashaydi. Uchinchi farzandlari — Shuhrat, Sherzod va Shahzoda — oilaviy qadriyatlarni davom ettirib, jamiyatda munosib o'rin egallagan. Xolmurod boboning boshqa farzandlari — Elmira va Alisher — ham o'z hayot yo'lini topgan, Tohir aka esa Ukrainada tug'ilgan bo'lishiga qaramay, oila qadriyatlarini davom ettirib kelmoqda. Xolmurod bobo va Buvimizning oilasi nafaqat shaxsiy mehnat va sadoqat namunasi, balki ikki xalq — o'zbek va ukrain — madaniy uyg'unligining yorqin misoli sifatida tarixda qoldi. Ularning hayoti Surxondaryo vohasining tarixiy, madaniy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ushbu oila tarixiy tajriba sifatida avloddan-avlodga etib, xalqaro madaniy va insoniy qadriyatlarni namoyon qiladi.

NATIJALAR

Xolmurod bobo va Xasanovlar oilasining tarixi Surxondaryo viloyati va Ukraina bilan bog'liq bo'lib, hududdagi migratsiya jarayonlari, etnik uyg'unlik va ijtimoiy integratsiya jarayonlarini yaxlit tasvirlaydi³⁴. Oilaning shakllanishi ikki millat — o'zbek va ukrain xalqlari o'rtasidagi madaniy uyg'unlik va ijtimoiy barqarorlikni ochib beradi³⁵.

Xolmurod bobo Sherobod tumanidagi PEMKA korxonasida faoliyat yuritgan bo'lib, u erda paxta xomashyosini tashish, ichki logistika tizimini rivojlantirish va transport vositalarini samarali boshqarish bilan shug'ullangan. Ushbu faoliyat nafaqat korxonaning ishlab chiqarish jarayonini tezlashtirgan, balki oilaning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga ham xizmat qilgan.

Shu bilan birga, turmush o'rtog'i Sherobod tumanidagi 14-avtobazada ishlagan, bu korxona hudud transport tizimining markaziy qismini tashkil qilgan va tumandagi tashish xizmatlarini samarali yo'lga qo'ygan³⁶.

Tarixiy demografik tahlillar shuni ko'rsatadiki, Surxondaryo viloyatida 1925–1946 yillarda amalga oshirilgan migratsiya jarayonlari oilaviy struktura va etnik tarkibni shakllantirishda muhim omil bo'lgan.

Oilaning Ukrainadan O'zbekistonga ko'chishi transchegaraviy aloqalarni mustahkamlashga yordam bergan va ikki mamlakat oila a'zolari o'rtasidagi madaniy rishtalarni davom ettirish imkonini yaratgan³⁷.

Farzandlar tarbiyasi, madaniy qadriyatlar va ma'rifiy meros oilaning ijtimoiy barqarorligini davom ettirishga xizmat qilgan. Gulnora opa va uning aka-ukalari oilaviy merosni davom ettirib, hududda madaniy va ma'rifiy an'analarni mustahkamlashga hissa qo'shgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Xasanovlar oilasi Surxondaryo viloyatida migratsiya, etnik uyg'unlik, madaniy integratsiya va iqtisodiy barqarorlikning mikrokosmosi sifatida namoyon bo'ladi.

MUHOKAMA

Xolmurod boboning va Buvimizning migratsiya va mehnat tarixi nafaqat oilaviy hikoya, balki keng ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarning bir ko'rinishi sifatida qaralishi mumkin. Bunday kontekstda, O'zbekiston migratsiyasining makro-tendensiyalari ularga to'g'ri keladi: **Mirzohid Rahimov va Farhod Yoqubov** tomonidan olib borilgan tadqiqotda O'zbekistonning tashqi migratsiyasida mehnat omili va remittanslarning milliy iqtisodga katta ta'siri ko'rsatilgan³⁸.

Ularning natijalari shuni ko'rsatadi-ki, mehnat migratsiyasi faqat alohida oilalarning emas, balki butun mamlakat iqtisodining raqamli va demografik tuzilishini shakllantiruvchi omil hisoblanadi. Shuningdek, demografik harakatlar va migratsiya bugungi kunda ijtimoiy garovlikni kuchaytiradigan vosita hisoblanadi. **Malika Saidmurodov**ning tahlilida, 1991–2023-yillarda O'zbekistonda demografik o'zgarishlar ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotga bevosita ta'sir qilgani haqida so'z boradi³⁹. Xasanovlar oilasi misolida, ko'chib kelish va mehnat migratsiyasi oilaning ijtimoiy pozitsiyasini yaxshilabgina qolmay, ularning farzandlarining perspektivalariga ham katta ta'sir ko'rsatganligi aniq ko'zga tashlanadi.

Bundan tashqari, migratsiyaning sotsiologik jihatlar — odamlardagi madaniy identitet, turmush tarzi va ijtimoiy integratsiya — **Iroda Eshamov**ning konferensiya maqolasida mos ravishda tahlil qilingan⁴⁰. U migratsiya jarayonlarini ichki va tashqi migratsiya kategoriyalari, vaqtinchalik va doimiy ko'chish sifatida ko'rib chiqadi va shuni ta'kidlaydi-ki, uzluksiz madaniy aloqalar va oila rishtalari migratsiyaning ijtimoiy barqarorligiga katta hissa qo'shadi.

³⁴Сайдахматов С. Сурхандаръё ва Қашқадаръёда демографик ўзгаришлар ва миграция // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. – 2020. – №4(S/9). – С. 26–32. – Тошкент: Fan..

³⁵Эшмоъминов О. Демография жараёнлари: Сурхон воҳаси (1925–1946) // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. – 2021. – №4(5). – С. 15–24. – Тошкент: Fan.

³⁶Камилов О. Ўзбекистон миграцияси ва минтақавий ҳамкорлик // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. – 2021. – №6(3). – С. 33–41. – Тошкент: Fan..

³⁷UniversalPublishings. Сурхандаръё аҳолиси: демографик маълумотлар. – Тошкент: UniversalPublishings, 2023. – С. 23–56..

³⁸Rakhimov M., Yokubov F. Uzbekistan External Migration: Key Trends // Eurasian Research Journal. – 2022. – Vol. 4, №1. – P. 27–47. – erj.eurasian-research.org.

³⁹Сайдмуродова М. Демография ва Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши (1991–2023) // Tadqiqot.uz. – 2023.

⁴⁰Эшамова И. Ш. Миграция жараёнлари: социологик таҳлил (конференция мақоласи). – 2025. – Zenodo.

XULOSA

Xolmurod bobo va Xasanovlar oilasining tarixi Surxondaryo viloyati va Ukraina bilan bog'liq holda ikki millat o'rtasidagi madaniy uyg'unlik, ijtimoiy integratsiya va migratsiya jarayonlarini yaqqol aks ettiradi. Oilaning shakllanishi va mehnat faoliyati nafaqat oilaviy, balki hududiy iqtisodiy va ijtimoiy hayotga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

PEMKA korxonasi va 14-avtobaza orqali Xolmurod bobo va Yekaterina opa faoliyati transport tizimi, paxta tashish va ichki logistika jarayonlarini rivojlantirishga hissa qo'shgan. Shu bilan birga, oilaning Ukrainaga muntazam safarlari transchegaraviy madaniy aloqalarni mustahkamlash, ikki mamlakat o'rtasidagi ijtimoiy rishtalarni davom ettirish va avlodlarga madaniy merosni etkazish imkonini yaratgan. Farzandlar tarbiyasi, madaniy qadriyatlar va ma'rifiy meros orqali oila hududdagi ijtimoiy barqarorlik va etnik uyg'unlikni saqlab kelmoqda. Xolmurod bobo va Yekaterina opaning oilaviy tarixi hududdagi migratsiya, mehnat faoliyati va madaniy integratsiyaning mikrokosmosi sifatida ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, oila tarixi Surxondaryo viloyatidagi migratsiya jarayonlari, demografik o'zgarishlar va mehnat faoliyati natijalarini tushunish, shuningdek, hududiy va milliy ijtimoiy siyosatni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishda asos bo'lishi mumkin. Natijalar shuni ko'rsatadiki, oilaning shaxsiy tajribasi hududdagi makro-demografik va madaniy jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir va ularni yanada chuqurroq o'rganish zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Сайдахматов С. Сурхандаръё ва Қашқадаръёда демографик ўзгаришлар ва мигратсия // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. – 2020. – №4(S/9). – С. 26–32. – Тошкент: Fan..
2. Эшмоъминов О. Демография жараёнлари: Сурхон воҳаси (1925–1946) // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. – 2021. – №4(5). – С. 15–24. – Тошкент: Fan.
3. Камилов О. Ўзбекистон мигратсияси ва минтақавий ҳамкорлик // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. – 2021. – №6(3). – С. 33–41. – Тошкент: Fan..
4. UniversalPublishings. Сурхандаръё аҳолиси: демографик маълумотлар. – Тошкент: UniversalPublishings, 2023. – С. 23–56..
5. Rakhimov M., Yokubov F. Uzbekistan External Migration: Key Trends // Eurasian Research Journal. – 2022. – Vol. 4, №1. – P. 27–47. – erj.eurasian-research.org.
6. Саидмуродова М. Демография ва Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши (1991–2023) // Tadqiqot.uz. – 2023.
7. Эшамова И. Ш. Мигратсия жараёнлари: социологик таҳлил (конференция мақоласи). – 2025. – Zenodo.
8. Suhbat (dala tadqiqoti), Xasanova G.X., Sherobod tumani, Surxondaryo viloyati, O'zbekiston, 15.11.2025.
9. Suhbat (dala tadqiqoti), Xasanova E.X., Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani, G'ambur mahallasi 15.11.2025.
10. Suhbat (dala tadqiqoti), Xasanov A.X., 1969-yilda tug'ilgan. Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani, G'ambur mahallasi 15.11.2025.
11. Suhbat (dala tadqiqoti), Xasanov T.X. Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani, O'zbekiston, 15.11.2025.